

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA ISHBILARMONLIK O'YINLARI TEXNOLOGIYASI

Navruzova Dilnura Dilshod qizi

Nizomiy nomidagi TDPU 4-guruh talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7244650>

Bugungi kunda erkin shaxsni shakllantirish muammosi ta'lim tashkilotlarida o'quv-tarbiyaviy ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyaga o'tkazishni taqozo etadi. Bu jaraèn oson kechmaydi, chunki ixtièriy qurilaètgan va joriy etilaètgan o'qitish tizimini qat'iyon ilmiy asoslangan pedagogik tizimga aylantirish kerak. V.P.Bespalkoning ta'rifiga ko'ra – pedagogik tizim - ma'lum shaxs sifatlarini shakllantirishga tartibli, aniq maqsadni ko'zlab va oldindan o'ylab pedagogik ta'sir etishni vujudga keltirish uchun zarur bo'lgan o'zaro bog'liq vositalar, usullar va jaraènlari yig'indisidir. Har bir jamiyatda shaxsni shakllantirish maqsadi belgilab olinadi va unga mos ravishda pedagogik tizim mavjud bo'lishi kerak. Agar maqsad o'zgarsa mavjud tizim ham o'zgarishi muqarrardir.

Pedagogik texnologiya shunday bilimlar sohasiki, ularning vositasida yangi ming yillikda davlatning ta'lim sohasidagi sièsatida tub burilish yuz beradi, o'qituvchi (pedagog) faoliyati yangilanadi, ta'lim oluvchi-ta'lim oluvchilarda hur fikrlilik, insonparvarlik tuyg'ulari tizimi shakllantiriladi.

«**Texnologiya**» - yunoncha ikki so'zdan – «texnos» (techne) – mahorat, san'at va «logos» (logos) – fan, ta'limot so'zlaridan tashkil topgan. Bu ifoda zamonaviy texnologiya jaraèinini to'liq tavsiflab berolmaydi. Texnologiya deganda sub'ekt tomonidan ob'ektga ko'rsatilgan ta'sir natijasida sub'ektda sifat o'zgarishiga olib keluvchi jaraèn tushuniladi. Texnologiya har doim zaruriy vositalar va sharoitlardan foydalanib, ob'ektga yo'naltirilgan maqsadli amallarni muayyan ketma-ketlikda bajarishni ko'zda tutadi. Bugungi kunga kelib, o'qituvchi (pedagog)lar metodikani ko'p hollarda texnologiyadan ajrata olmayaptilar. Shu boisdan ham bu tushunchalarga aniqlik kiritish kerak bo'ladi. Metodika (uslubiyat) o'quv jaraèinini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha tavsiyalar majmuasidan iborat.

Pedagogik texnologiya esa oldindan belgilab qo'yilgan aniq maqsad yo'lida o'qituvchi (pedagog)ning kasbiy faoliyatini yangilovchi va ta'limda yakuniy natijani kafolatlaydigan tadbirlar majmuasi yig'indisidir. Pedagogik texnologiya tushunchasini oydinlashtirishga qaratilgan ta'riflarning xilma-xilligi, bir tomondan rivojlangan mamlakatlarda ushbu mavzuning u èki bu darajada yechilaètganligini ko'rsatsa, ikkinchi tomondan, pedagogik texnologiyani pedagogik amaliètga joriy etishga bo'lgan urinishlarning ma'lum natijasini ifodalaydi. Hozirda mamlakatimizda mutaxassislarining ilmiy salohiyatini birlashtirishga imkoniyatlar yetarli darajada, chunki nazariya va amalièt

birlikning ta'minlanishi pedagogik texnologiyaning asl mohiyatini aniqlashga yo'l ochadi. Demak, pedagogik texnologiyaga pedagogika fanining alohida tarmog'i sifatida èki faqat ta'lim amaliètini maqbullashtirishga yo'naltirilgan tizim, deb qarash mumkin emas.

Pedagogik texnologiya bu sohadagi nazariy va amaliy izlanishlarni birlashtirish doirasidagi faoliyatni aks ettiradi. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsataètgan pedagog pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya jaraènini faollashtirish usullari va o'qitiladigan fanlar bo'yicha sifatli bilim, ko'nikma va malakalarni hosil qilishni ta'minlovchi pedagogik usullarni qo'llay bilishi lozim. U pedagogik texnologiyalarning mohiyati, maqsadi va vazifalarini o'rganib chiqib, ular haqida ilmiy asoslangan ma'lumotlar, amaliy yo'llanmalar ishlab chiqishi, ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalarini o'zlashtirganidan so'ng, uni ta'lim tizimiga joriy eta olishi kerak. O'quv-tarbiya jaraènida hamkorlikda o'qitish texnologiyasi metodlaridan foydalanish har bir ta'lim oluvchini kundalik qizg'in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o'rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, ta'lim oluvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg'usini vujudga keltirish, o'z kuchi va qobiliyatiga bo'lgan ishonchini mustahkamlash, ta'lim olishda mas'uliyat hissini shakllantirishni ko'zda tutadi. Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi har bir ta'lim oluvchining ta'lim olishdai muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, berilgan topshiriqlarni sifatli bajarishga, o'quv materialini puxta o'zlashtirishga zamin tayèrlaydi. Ta'lim tashkilotlarda olib boriladigan mashg'ulotlarda hamkorlikda o'qitish texnologiyasining guruhlarda o'qitish, zigzag èki arra, kichik guruhlarda ijodiy izlanishni tashkil etish metodlaridan foydalanish uchun pedagog har bir metodning didaktik maqsadini anglagan holda o'quv topshiriqlarini tuzadi va ulardan o'z o'rnida foydalanish yo'llarini belgilaydi.

**Interfaol metodlar** - o'zaro fikr almashishga, o'zaro fikrlarni to'ldirishga, goh noverbal, goho verbal ta'sir o'tkazishga qaratilgan harakatlar majmuasidir. Interfaol metodlarni qo'llashda o'zaro ta'sir asosiga qurilgan intellektual harakatlar shunchaki ta'sir èki turtki vazifasini bajarish bilan cheklanib qolmaydi va hamkorlik sub'ektlarini ijodiy izlanishga yo'naltirish, noma'lum holatni ochishga(kashf etishga) ko'mak beruvchi nazariy-aqliy mulohazalarni yaratish funksiyalarini ham bajarishi mumkin. Interfaol o'qitish jaraèni an'anaviy (doska ènidagi) o'qitishdan farqli o'laroq bir qancha metodololik qirralar ustunligiga ega. Bu avvalom bor, ishtirokchilarning o'yin qoidalarini ishlab chiquvchi muallim va bir - biri bilan faol, emotsional tusdagi munosabatlariga asoslanadi. Mavzuni mustahkamlash maqsadida "T-jadval"

metodidan foydalaniladi. “T-jadval” metodi - munozara vaqtida qo‘shaloq javoblar (ha/yo‘q, ijobiy/salbiy) èki taqqoslash uchun grafikli metod hisoblanadi.

### “T-jadval” metodi grafigi

+ (ha ijobiy)	-yo‘q (salbiy)

“T-jadval” metodi-bitta konsepsiya (ma'lumot)ning jihati o‘zaro solishtirish èki ularni aniqlash uchun ishlatiladi. Ta'lim oluvchilarda tanqidiy mushohada qilish qobiliyatlarini rivojlantiradi. Ushbu metod qo‘yidagicha amalga oshiriladi:

1. “T-jadval” metodi qoidalari bilan tanishtiriladi.
2. Tinglovchilar 6 ta kichik guruhlariga ajratiladi.
3. Kichik guruhlariga vazifalar beriladi. 1-kichik guruh va 2-kichik guruhga topshiriq: “Interfaol metodlarni tahlil qiling.” 3-kichik guruh va 4-kichik guruhga topshiriq: “Faol metodlarni tahlil qiling.” 5-kichik guruh va 6-kichik guruhga topshiriq: “Nofaol metodlarni tahlil qiling.” Topshiriqni bajarish uchun 10 daqiqa vaqt belgilanadi.
4. Ajratilgan vaqt oraliqida belgilangan tartibda (juftlikda, kichik guruhlarda) T jadval to‘ldiriladi, uning chap tomoniga ijobiy tomonlari èziladi, o‘ng tomoniga esa chap tomonda ifoda qarama– qarshi g‘oyalar, omillar va shu kabilar èziladi.
5. Kichik guruhlar taqdimot qiladilar. Taqdimot uchun har bir guruhga 5 daqiqadan vaqt ajratiladi.
6. Har 2 ta kichik guruhdan so‘ng muhokama va tahlil o‘tkaziladi. T- jadval metodining afzalligi:
  - ta'lim oluvchilarning faolligini oshiradi;
  - yangi o‘tiladigan mavzu bo‘yicha ta'lim oluvchilarning bilimlarini aniqlashga èrdam beradi;
  - bir-biriga fikrini o‘tazish, dalillar keltirish ko‘nikmasi shakllanadi.

Tarbiyalash nuqtai-nazaridan esa o‘yin hamrohlar fikrini hurmat qilish, uni ishda qo‘llab-quvvatlashga intilish, o‘zining o‘quv-bilish imkoniyatlariga ishonch kabi insoniy sifatlarni shakllantiradi. O‘yinning rivojlantiruvchi tomoni tarbiyalanuvchilarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘ladi. Osongina o‘ynaladigan o‘yinlar orqali tarbiyalanuvchilar o‘z kasblariga qiziqib, o‘tilgan mavzularni takrorlab mustahkamlaydilar, olgan bilim va ko‘nikmalarining darajasini tekshirishni hal qiladilar, ish jaraènining qanday bajarilganligi tarbiyalanuvchilarning o‘zlari tomonidan kuzatiladi va baholanadi, o‘yin jaraènida o‘zaro nazorat tizimi tuziladiki, u ishlab chiqarish jaraènining

yuksalishi uchun juda kerakdir. O'yin-darslarining ta'lim-tarbiya berishdan boshqa tomonlari ham bor: o'yin davomida har bir tarbiyalanuvchining ichki qobiliyati va laèqati, faolligi bevosita ko'rinadi.

## **“FUTBOL” DIDAKTIK O'YINI**

### ***O'yin qoidasi***

Guruh tarbiyalanuvchilaridan ikki komanda tashkil qilinib, har bir komanda a'zolari ichidan eng faol va a'lochisini darvozabon etib tayinlanadi. Tarbiyalanuvchilar soni har ikkala komandada teng bo'lib, soni cheklanmagan bo'lishi mumkin. O'yin boshlangandan so'ng bir komanda a'zosi ikkinchi komandaning biror bir raqamli a'zosiga savol beradi. Agar savolga javob bera olsa, to'pni qaytargan hisoblanadi. Agar javob bera olmasa, shu komanda darvozaboni javob berishi kerak. Javob qaytarsa, to'pni ushlab qolgan hisoblanadi. Agar darvozabon ham javob topa olmasa, darvozaga to'pni o'tkazib yuborgan hisoblanib, “GOL” hisobi ochiladi.

Misol uchun:

1. “Paxtakor” komandasining 2- raqamli tarbiyalanuvchisi “Bunèdkor” komandasining 2- raqamli o'yinchisiga savol berdi. Javob bera olmagan uchun darvozabon javob berdi va “GOL” dan saqlab qoldi.
2. “Paxtakor”dagi 3- raqamli o'yinchi “Bunèdkor” komandasining 6- raqamli o'yinchisiga savol berdi va u javob qaytardi.
3. “Paxtakor” ning 10-raqamdagi o'yinchisi «Bunèdkor» komandasining 8-raqamli o'yinchisiga savol berdi, javob bera olmaganidan so'ng darvozabonga savol uzatildi, u ham javob bera olmadi- “ GOL”.
4. “Bunèdkor” ning 3- raqamli o'yinchisi “Paxtakor” komandasining 5- raqamli o'yinchisiga savol berdi, javob bera olmadi, lekin darvozabon javob qaytardi.
5. “Bunèdkor” komandasidagi 10- raqamli o'yinchining bergan savoliga “Paxtakor” komandasining 6-raqamli o'yinchisi javob bera olmadi, so'ng darvozabon javob berdi va h.k.

### **O'YIN ShARTLARI:**

1. Har bir o'yinchi faqat bitta savol berish huquqiga ega.
2. Har bir o'yinchiga faqat bitta savol berilishi mumkin.
3. Berilgan savol komanda orasida muhokama qilinmaydi.

### **ShARTLI BeLGILAR:**

D – darvoza

1 - darvozabonlar ( tarbiyalanuvchi)

2-11 – o'yinchilar (tarbiyalanuvchilar)

BH - bosh hakam (tarbiyachi)

H - hakamlar (tarbiyalanuvchilar)

#### T - tomoshabin tarbiyalanuvchilar

Hozirgi paytda ta'lim va tarbiya vositasi sifatida ko'pgina pedagoglarning e'tiborini o'ziga tortib boraётgan didaktik o'yinlar ham tarbiyachi, ham tarbiyalanuvchida katta qiziqish uyg'otmoqda, chunki hamma ham o'yinga qiziqadi, bu esa o'yin jaraenida boshlang'ich ko'nikmalarni shakllantirishga va rivojlantirishga, tarbiyalanuvchilar fikrlash qobiliyatini o'stirishga, jamoani uyg'unlashtirishga erdam beradi. Ta'lim berish nuqtai-nazaridan o'yin bilim, ko'nikmalar va malakalar bilan bir qatorda jamoa bo'lib masalalarni hal qilish yo'llari to'g'risidagi bilimlarni, turli xildagi topshiriqlarni yechish yo'llarini qidirish jaraenida o'zaro muloqot qilish shakllari va usullarini shakllantiradi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Azizov A. Innovatsion menejment – strategik rejalashtirish yo'nalishlaridan biri. // j. Jamiyat va boshqaruv. – T., 2001. - №4. – B.40-42.
2. Azizov A. Taraqqiyot kaliti: Innovatsion jarayon, uning o'rganilish va ahamiyati. // j. Jamiyat va boshqaruv. – T., 2002. - №1. – B.48-49.
3. Aldjanova I.R. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda pedagogik innovatsiyalardan foydalanish. – T.: “Fan va texnologiyalar” nashriyoti, 2012.
4. Volchok L.A. Upravleniya protsessom formirovaniya motivatsii pedagogicheskogo kollektiva k innovatsionnoy deyatelnosti: Diss. ...kand.ped.nauk. – M., 2006.